

Agroturizm. Turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta imkoniyat va salohiyatga ega bo'lgan turizmning maxsus turlarining istiqboldagi o'rnini belgilash uchun, albatta tashkiliy-harakat dasturini tuzish soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirdanoq anglamog'imiz lozim. Turizmning maxsus turlarini R.Hayitboyev va R.Amriddinova rivojlantirish «Dasturi»ni ishlab chiqqan.

Qayd qilmoqchimizki, «Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturi» bizning maxsus turlarni rivojlantirishning juda muhimligini bu turlar turizmga salohiyatli, ichki va xalqaro turizmni o'ziga doimo jalb qiladigan muhim sohalaridan bo'lishiga ishonchdir. Albatta, bu dastur dastlabki tahlil mahsuli bo'lib, dasturni mukammal tuzishga turizmdagi mutaxassislar, professor - o'qituvchilar, turistik firmalar va turistik tashkilotlar, «O'zbekturizm» MK ishtirokida ko'rib chiqish, muhokama qilish va keng qamrovli «Dastur»ga aylantirishni, muhim hujjat sifatida davlat maqomida rasmiylashtirishni talab qiladi.

Хулоса. O'zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning 11 turini ro'yxatga oldik. Bu turlar ham jami 51 tarmoqqa, ko'rinishlarga bo'linib ketadi. Birinchi guruhda turgan maxsus turlar alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilmasligining sababi – bu turlar resurslari – obyektlari asosan shaharlarimiz, tumanlarimiz markazlarining ichida yoki atroflarida joylashganligidir. Ma'lum bir

shaharga kelgan har qanday darajadagi turistni maxsus turlar obyektiga taklif qilish turoperatorning tadbirkorligiga bog'liq. Maxsus tur shahar ichida yoki atrofiga (masofa yaqin) bo'lganligidan turistik marshrutdagi asosiy xizmatlar: marshrutdagi to'xtashlar vaqtida, dam olish, ko'ngilochar o'yinlar o'tkazish, ekzotik safar, tunash kabilar talab qilinmaydi. Turist maxsus tur obyekti bilan tanishgach, tomosha yoki so'rab surishtirishlar, rasm yoki video-ga olgach o'zi to'xtagan mehmonxonaga qaytadi. Turistik marshrutda yuqorida qayd qilingan xizmatlarning barchasi turist yashayotgan mehmonxona ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi. «Etnik va sog'inish turizmi»ning alohida turistik marshrutlar talab qilmasligining sababi bu turni amalga oshiruvchi turistlar aksariyat hollarida «o'zboshimchalik» usulini qo'llaydi, ya'ni u boradigan joyini biladi va turistik firma yoki turizm operatori xizmatiga harajat qilishni xohlamaydi. Bu holatning yana bir sababi «sog'ingan» yaqinlari, do'stlari, o'rtoqlari mehmonxona xizmatlarining barchasini unga bepul taklif etadi (mehmon sifatida). Etnik, etnografik turizmde deyarli tadqiqotchilar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, qiziquvchilar (bir yoki bir nechta turist) bo'lganligidan maxsus marshrut ishlab chiqish zarurati yo'q. Etnograf turistlar asosiy holatlarda tarjimon yo'lboshlovchi va transport turini ijaraga olib bir manzildan yoki bir aholi maskanidan ikkinchi bir manzilga erkin harakat qilishadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992- yil 8-dekabr).
2. VI Toshkent Xalqaro Investitsion-Moliya Forumi doirasida o'tkazilgan Plenum majlisida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot ishlari vaziri G.Saidovning nutqi. 2013.
3. Hayitboyev R., Amriddinova R. Turizmning maxsus turlari. Uslubiy qo'llanma. -Samarqand: 2008.
4. Hayitboyev R., Sattarov A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Ma'ruzalar matni. -Samarqand: 2009.
5. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibadullayev N, R.Amriddinova. Turizm asoslari. -Samarqand: 2010.
6. Nishonova O. J. Etnik madaniyat va marosimlar. Ma'ruzalar to'plami. -Toshkent: 2009.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada tarixchi, adabiyotshunos va etno-etnografik turizmga qiziquvchilar deyarli yo'qligini, alohida yo'nalish ishlab chiqishga hojat yo'qligini ko'ramiz. Maqolada aytilishicha, etnografik sayyohlar tarjimon, gid va transport turini ijaraga olgan holda bir manzil yoki bir joydan ikkinchi joyga bemaolol harakat qilishlari mumkin.

РЕЗЮМЕ. В этой статье мы увидим, что историков, литературоведов и людей, интересующихся этноэтнографическим туризмом, почти нет, и нет необходимости развивать отдельное направление. Согласно статье, этнографические туристы могут легко перемещаться из одного пункта назначения или места в другое, наняв переводчика, гида и вид транспорта.

SUMMARY. In this article, we will see that there are almost no historians, literary critics and people interested in ethnographic tourism, and there is no need to develop a separate direction. According to the article, ethnographic tourists can easily move from one destination or place to another by hiring an interpreter, guide and mode of transport.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ETNOGRAFIYA, URF ODATLAR VA AN'ANALARNING TUTGAN O'RNI

A.Abdullaev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

N.Jumageldiev – assistent o'qituvchi

A.Abdullaeva – assistent o'qituvchi

E.Erimbetov – magistrant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: turizm, urf odat, buyuk ipak yo'li, milliy san'at, milliy folklor, askiyalar, laparlar, tasviriy turizm, hunarmandchilik, baxshi, shoirlar.

Ключевые слова: туризм, традиции, Великий шелковый путь, народное искусство, народный фольклор, аския, лапары, живописный туризм, ремесла, бакшы, поэты.

Key words: tourism, tradition, the great silk road, national art, national folklore, askiyas, lapars, pictorial tourism, crafts, bakshi, poets.

O'zbekiston juda katta turistik salohiyatlarga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham xalqaro turizmning markazlari bo'lib qolishining juda katta imkoniyatlari bor. Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Milliy urf-odat va an'analar turlarini ro'yxatini tuzishda ba'zi bir turlar ma'lumotlarning yo'qligi tufayli qolib ketishi mumkin. Bunday turlar aniqlanib, to'liq tavsifi, ta'rifi berilganidan keyin turizmdagi o'rni, talabga javob berilishi belgilanganidan keyin tasnifga qo'shimcha qilib kiritiladi. Tasniflash har qanday sohaga muhim, to'liq ma'lumotlar beruvchi, soha rivojini rejalashtirishda asosiy manba bo'luvchi, jadvalli muhim ma'lumotnomadir.

Tasniflashda o'rganilayotgan sohaning barcha jihatlari, xilma-xilliklari, ma'lumotlari bo'lishi lozim. Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari emas. Biz turizmde maxsus turlar bo'lishi mumkinligini hisobga olib, madaniyat sohalarini, hunarmandchilik, milliy o'yinlar va ishlab chiqarish sohalarini nomlanishiga turizm so'zini qo'shib turizmdagi maxsus turlar ro'yxatini – tasnifini R.Hayitboyev va R.Amriddinova ishlab chiqqan [3]. Milliy san'at, milliy folklor, qo'shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, rassomchilik va haykaltaroshlik, baxshilar, o'lan aytish qo'shiqchiliklari kabi san'at turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

Qo'shiqchilik va raqs san'ati yo'nalishlari. 1. Baxshilar qo'shiqchiligi maktablari. 2. Askiyalar, laparlar, aytishuvlarga qiziqish. 3. Milliy rassomchilik va

haykaltaroshlik. 4. Milliy folklor turlari. **Tabiiy – tarixiy tasvirlar turizmi.** Tabiat muzeylari va tabiat haykallari, tog‘qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar, o‘lkashunoslik va milliy xalq hayoti tarixiy muzeylariga qiziqish. Bu tur ham quyidagi yo‘nalishlarni o‘z tarkibiga oladi:

Tabiat muzeylari va tabiat haykallari, O‘lkashunoslik muzeylari, milliy xalq hayoti tarixi muzeylari, Qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar 5. Hayvonot bog‘lari. **Milliy hunarmandchilik turizmi.** Milliy hunarmandchilikning turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo‘nalishlar, xalq-me‘mor, xalq - usta shiori va reklamas, milliy hunarmandchilik buyumlarining mukammal va mo‘jizakorligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo‘linib ketadi: **Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi.** Vatanimizda xalq polvonlari o‘yinlari va xalqaro polvonlarning bellashuviga qiziqish. **Hayot uchun xavfli sport o‘yinlari turizmi.** Bu turlar asosan xorij mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Hayot uchun xavfli sport o‘yinlari turizmdagi ba‘zi bir turlar faqat jahonda faqat bitta davlatda rivojlangan (masalan, korrido Portugaliyada, asov otni jilovlash Ispaniyada) bo‘lib turizm mavsumida bu hayot uchun xavfli o‘yinlarni millionlab turistlar hayajon, qo‘rquv va qiziqish bilan tomosha qiladilar. Bu turlarni ba‘zida ekstremal turizm turlari deb ham atashadi. “Uzbekistan travel workshop - 2013” mintaqaviy turistik forumiga mamlakatimiz sayyohlik sohasining yetakchi mutaxassisleri yig‘ildilar. Ushbu tadbirda yurtimizda sayyohlikni rivojlantirish istiqbollari va sohaning dolzarb masalalariga e‘tibor qaratildi. Yurtimizda turizm sohasida mintaqaviy breeding, xorijiy sayyohlar uchun turistik mahsulotlar yaratish ishlarida o‘z yechimini kutayotgan muammolar, chet ellik sayyohlarni yurtimizga keng jalb etish mexanizmini kuchaytirish, sayyohlikning an‘anaviy va muqobil turlarini rivojlantirish sayyohlik xizmatini yaxshilash hamda hududlarda ekologik va qishloq turizmini rivojlantirish kabi boshqa masalalar forum kun tartibidan keng o‘rin oldi. Baxshi-shoirilar va oqinlarning an‘anaviy Respublika ko‘rik-tanlovida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardan tashrif buyurgan ellikdan ziyod baxshi-shoirilar, oqinlar va xalfalar o‘z dasturlari bilan qatnashib, festivalga ko‘tarinki ruh hamda o‘ziga xos fayzu tarovat olib kirdilar. Mazkur tanlov yurtimizdagi nomoddiy madaniy merosimizning noyob durdonalari hisoblangan baxshichilik va dostonchilik san‘atini rivojlantirish, baxshi-shoirilar, oqinlarning ijodiy ishlari bilan yaqindan tanishish, yangi iste’dodlarni kashf etish va ularning ijodini keng targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Madaniyat va san‘at bayramiga aylangan tadbir so‘nggida “Xorazm madaniyati kunlari” festivalida faol qatnashgan ishtirokchilarni taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Ularga Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma‘rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, viloyat hokimligining diplomlari hamda esdalik sovg‘alari topshirildi [7]. Turistik xo‘jalik jahon iqtisodiyotining eng serdaromad tarmog‘i hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon savdo aylanmasining 7% i xalqaro turizmga to‘g‘ri keladi. Jahonning ko‘p mamlakatlari uchun turizm tashqi savdo aylanmasi daromadning muhim moddalaridan biriga aylangan. Turistik biznes Meksikaga valyuta daromadining 44%, Portugaliya 28%, Avstriyaga 23%, Italiyaga 41% beradi. Xalqaro turizm sohasining yetakchi kichik tarmog‘i bo‘lib, ichki infrastruktura, servis va ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatiga bog‘liq bo‘ladi. «Ommaviy madaniyat» o‘tgan asrning o‘rtalariga kelib jahonda, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti yuksalayotgan davlatlarda keng tarqaldi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va jahonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy integratsiyaning kengayishi «ommaviy madaniyat»ni umumplanetar hodisaga

aylantirdi.

O‘zbek etnik madaniyatini rivojlantirish xalqimizning nafaqat tarixiy madaniy qadriyatlarni sevishi, ulardan xabardor bo‘lishi, xuddi shuningdek, ularning etnomadaniy hayotda faol subyektlar sifatida qatnashishini ta‘minlaydigan ijtimoiy omillarga ham bog‘liqdir. Bo‘sh vaqt va undan foydalanish ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o‘z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. «Vaqtimizning bir qismini tortib oladilar, - deb yozgan edi bundan ikki ming yil oldin Seneka,- bir qismini o‘g‘irlaydilar, bir qismi esa behuda o‘tadi. Biroq hammasidan uyatlisi, uni o‘zimizning befarqligimiz tufayli yo‘qolganidir» Vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlar kengaygan hozirgi paytda vaqtning qadriga yetmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o‘z navbatida insonning ham o‘zgarishini belgilovchi me‘yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar bo‘sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog‘liqlikda o‘rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro‘yobga chiqishini bo‘sh vaqtning hajmi va undan foydalanish ko‘nikmalari bilan bog‘laydi.

Xalqimiz tafakkuri va etnopsixologiyasida o‘z xalqiga xos an‘analarni saqlab qolish, hatto turmush qiyinchiliklariga chidab bo‘lsa-da, ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini asrash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish xususiyati mavjud.

Etnik madaniyat, xalq an‘anaviy ijodi hozir zamonaviy san‘at bilan uyg‘unlashib, modernizatsiyalashib, o‘z navbatida xalq ijodi ham zamonaviy san‘atni xalqqa, ko‘pchilikka yaqin, tushunarli qilish orqali rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Shuning uchun etnik madaniyatni faqat uzoq o‘tmishga taalluqli, o‘zgarayotgan san‘at, ijod turlari, marosimlar, an‘analari, bayram va tomoshalar deb qaramaslik, balki, uni xalq ijtimoiy hayoti bilan mudom dialektik bog‘liq, u bilan birga transformatsiyaga uchrab, kishilarning ma‘naviy-madaniy qiziqishlari va innovatsiyalar ta‘sirida modernizatsiyalashib keladigan voqelik sifatida qarash kerak.

Etnik madaniyatning rivojlanishini oilaviy yoki mahalla doirasi bilan cheklab, chegaralab bo‘lmaydi, aks holda etnik madaniyat oilaviy-maishiy marosimlardangina iborat bo‘lib qoladi. U butun jamiyatni, xalqni, millatni ijodiy madaniy jarayonlar subyektiga aylanishini hamda maxsus ijtimoiy-madaniy institutlar (ma‘naviyat va madaniyat saroylari, xalq ijodiyoti uylari, teatrlar va b.) ning turizmga faol ma‘naviy-ma‘rifiy va targ‘ibot ishlari talab etadi [5].

Turizmga turistlarning hayot faoliyati xavfsizligi mehnat muhofazasining huquqiy qonuniy asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va turli vazirliklarning ko‘rsatmalari va buyruqlari tashkil etadi [5].

Xulosa. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy hunarmandchilik rivojlandi, milliy urf-odatlarimiz tiklandi. Mamlakatimizda hunarmandlar markazi tashkil etilishi, bu sohadagi tadbirkorlarga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib erkinliklar berilishi bu sohani yanada rivojlanishiga asos bo‘ladi. Turizm sohasida ham ko‘p rivojlanishlar bo‘ldi, etnik turizm yaxshi rivojlanayotgan turizm sohasi bo‘lib shakillandi.

Turizmning bu turi ommabop turlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Oddiy xalq bilan tanishish ularning an‘analarini ko‘rish, milliy taomlarini tanovvul qilish, hunarmandchiliklari bilan tanishish, fikrlar eshitish va h.k. Turizmdagi maxsus turlarning obyektlari - xalqimizning tarixiy davrlardan buyon shakllanib, sayqallanib kelayotganligi, bu madaniyat va san‘at, loydan gul yasaydigan, milliy to‘n, atlas, do‘ppi tikadigan qo‘li gul hunarmand-

chiligi, temirdan san'at asari yaratadigan ustachiligi, jahondagi davlatlarda yashayotgan xalqlarda uchramaydigan, jasurlik-mardlikni kuylovchi milliy o'yinlari, e'zozli mehmondorchiligi, saxovatli to'yu- tomoshalari borligiga

asoslanganligi uchun ham, xalqimizning milliy g'ururini jahonga ko'z-ko'z qilishimiz va bundan faxrlanishimiz uchun ham xalqaro turizmga maxsus turlarni rivojlantirishimiz shart.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr).
2. VI- Toshkent Xalqaro Investitsion-Moliya Forumi doirasida o'tkazilgan Plenum majlisida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot ishlari vaziri G.Saidovning nutqi. 2013.
3. Hayitboyev R., Amriddinova R. Turizmning maxsus turlari. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand: 2008.
4. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibadullayev N., Amriddinova R. Turizm asoslari. –Samarqand: 2010.
5. Nishonova O. J. Etnik madaniyat va marosimlar. Ma'ruzalar to'plami. –Toshkent: 2009.
6. Mehnat Kodeksi (1995 yil 21 dekabr, №161-1).
7. <http://xs.uz>.

REZYUME. Mazkur maqolada mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki, butun jahonda ham xalqaro turizmning markazlari bo'lib qolishining juda katta imkoniyatlari bor. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

РЕЗЮМЕ. В этой статье наша страна имеет большой потенциал стать центром международного туризма не только в Центральной Азии, но и во всем мире. Наша Родина, расположенная на Великом шелковом пути, имеет благоприятные природно-климатические условия, богатое историческое и культурное наследие, и в то же время как внутреннее, так и международное имеет большой потенциал для развития туризма.

SUMMARY. In this article, our country has great potential to become the center of international tourism not only in Central Asia, but also in the whole world. Our Motherland, located on the Great Silk Road, has favorable natural and climatic conditions, rich historical and cultural heritage, and at the same time, both domestic and international has a high potential for tourism development.

SOHIBQIRON DAVRIDA O'ZBEK MUSIQA SAN'ATINING RIVOJ TOPISHI VA UNING E'ZozLI SOZANDASI

G.U.Burxonova – *assistent o'qituvchi*

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Amir Temur faoliyati, o'zbek musiqa san'ati, e'zozli sozanda, ilm-fan, adabiyot va san'at.

Ключевые слова: деятельность Амира Темура, узбекская музыка, заслуженный музыкант, наука, литература и искусство.

Key words: activity of Amir Temur, Uzbek music, honored musician, science, literature and art.

O'zbek musiqa san'atining rivoj topishida bobomiz Sohibqiron Amir Temurning hissasi katta. Amir Temur davrida san'at, madaniyat, ilm-fan va ko'plab sohalar rivoj topgan. Shu ma'noda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin. "Jahon ilm-fanida "G'arbda – Rim, Sharqda – Samarqand" degan ibora bejiz paydo bo'lmagan. Samarqand zaminida o'nlab, yuzlab buyuk ajdodlarimiz – mashhur sarkarda va davlat arboblari, alloma va mutafakkir zotlarning qadamjolari mavjud. Ayniqsa, buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz davrida Samarqandning shuhrati butun dunyoga taraldi" [1]. Amir Temur faoliyatini, xususan, shaxsiyatini san'atsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sohibqiron ilm-fan, adabiyot va san'at homiysi sifatida harbiy yurishlari chog'ida taniqli san'atkor, me'morlar, shoirlar, musiqashunoslar, rassomlarni Samarqandga to'plashga harakat qilgan, ijod qilishlari uchun imkoniyatlar yaratib bergan.

Taniqli hofiz, musiqashunos, bastakor Xoja Abdulqodir Marog'iy ham Temuriy saroyida faoliyat olib borgan tarixiy shaxslardan biridir. Asl ismi Abdulqodir ibn G'aybi al-Hofiz al-Marog'iy nomi bilan mashhur bo'lib, Tabriz yaqinidagi Marog'a shahrining Noi mavzeida tavalud topgan. Shu bois u Abdulqodir Noi nomi bilan taniqli bo'lgan. Noi iste'dodli naychi, sibizg'achi sifatida mashhur ekanligiga ishora.

Xoja Abdulqodir bir muddat Bag'dodda Jaloyirlar sulolasidan bo'lgan Sulton Uvays va Sulton Ahmadlar saroyida xizmat qilgan. Bag'dod Amir Temur tomonidan fath qilingandan so'ng ham uzoq vaqt unga qarshi kurash olib borgan. Amir Temur vafotidan so'ng o'z mulklarini qayta egalashga muvaffaq bo'lgan, ammo 1410-yilda turkman Qora Yusuf bilan to'qnashuvda halok bo'lgan.

Amir Temur Sulton Ahmad hayotlik paytida Bag'dodni fath qilgan edi. G'alabadan so'ng Marog'iy Xoja Abdulqodirning musiqachi sifatida yuksak qobiliyatidan xabar topadi va 1393 yilda uni izdoshlari va shogirdlari bilan birga Samarqandga olib keladi. Bu yerda unga ijod qilishi, forsiy va turkiy xalqlar musiqalarini o'rganishi uchun sharoit yaratadi. Uning tashabbusi bilan Samarqandda bastakorlar, musiqashunoslar maktabi vujudga keladi. Darvesh Ahmad Qonuniy, Sulton Ahmadiy, Sulton Muhammad

Udiy Samarqandiy, Xojagin Samarqandiy, Arab Navoiy, Qo'buzy, Tabib Mavlono Hasan Samarqandiy, Xo'ja Muhammad ibn Abdulhasan Samarqandiy ana shu maktabning faol a'zolaridandir.

Amir Temur vafotidan keyin Xoja Abdulqodir uning o'g'li Shohrux Mirzo, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar saroyida xizmat qiladi. Uning jamoasi asosan rasmiy diplomatik tadbirlarda, Sohibqiron va farzandlarining g'alabalari bilan bog'liq tantanalarda, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlarda ishtirok etgan. Bundan tashqari, shaxsan Amir Temur va temuriy shahzodalar oilaviy tantanalari-da, farzandlarining to'y marosimlarida ishtirok etadi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" asarida Shohrux Mirzo, Muhammad Sulton, Pirmuhammad Mirzolarining nikoh to'y marosimlarini quyidagicha ta'riflaydi: "Har biriga bir huri najot qizni shar'iy mutahhara yusini bila berdi va Bog'i Behishtda to'y qildi" [7]. Bayram tusini olgan bu to'yda Xoja Abdulqodir boshchiligidagi san'atkorlar turli tillarda qo'shiqlar ijro etganligini alohida aytib o'tadi.

Bu ma'lumotlar Amir Temur hamda keyingi davrlarda musiqa san'ati rivojida, qadimiy maqom qo'shiqlarining maydonga kelishida Xoja Abdulqodirning xizmatlari katta ekanligini isbotlaydi. U ijro bilan shug'ullanibgina qolmay, balki musiqashunos olim sifatida bastakorlik, musiqa san'atiga doir nazariy asarlar ham yaratgan. "Amir Temur jahon tarixida" nomli risolada u tomonidan bastalangan asarlar 200 dan ortiq ekanligi qayd etiladi.

Ayniqsa, uning musiqiy usullar sirasiga kirgan "Maytahn" asari muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda XVI-XVII asrlarda yashab ijod etgan musiqashunos olim Darvesh Ali Changiy bir asarida Xoja Abdulqodirning "Maytahn" asari Amir Temurga bag'ishlangani haqida ma'lumot beradi.

"Maytahn" – 200 zarbdan iborat vazn va ohang shaklidir. Har bir shakl o'ziga xos usulda ijro etilgan. Bu usul nihoyatda murakkab bo'lib, uni yaratish har qanday bastakorga nasib etmagan. Uni yaratish uchun kamida 15-20 yillik tajriba va matonat kerak bo'lgan. Shu bois ayrim mashhur bastakorlar ijodida faqat ikki-uchtagina muvaffaqiyatli chiqqan maytahn uchraydi.

Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" tazkirasida